



MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

PhD Nurmatov Sherzod Rustamovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0002-3394-2953
sherzod4444@bk.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi hamda soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar, barqarorlik reytingini xorij mamlakatlar tajribasi, reytingni aniqlash ko'rsatkichlari va baholash metodikalari hamda uning mezonlaridan samarali foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan va sababchi omillar tahlil qilinib, ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: barqarorlik reytingi, subsidiyalar, preferensiyalar, soliq imtiyozlari, soliq tushumlari, soliq ma'murchiligi.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПОРЯДКА ОПРЕДЕЛЕНИЯ РЕЙТИНГА УСТОЙЧИВОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

PhD Нурматов Шерзод Рустамович
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассмотрены внедрение рейтинга устойчивости субъектов предпринимательства в Узбекистане и некоторые важные реформы, реализованные в налоговой системе, опыт зарубежных стран, показатели и методы отсценки определения рейтинга устойчивости, а также эффективное использование его критериев. исследованы и проанализированы причинные факторы, сформулированы научные и практические выводы и предложения.

Ключевые слова: рейтинг устойчивости, субсидии, преференции, налоговые льготы, налоговые поступления, налоговое администрирование.

ISSUES OF IMPROVING THE PROCEDURE FOR DETERMINING THE SUSTAINABILITY RATING OF BUSINESS ENTITIES IN UZBEKISTAN

PhD Nurmatov Sherzod Rustamovich
Tashkent State University of Economics

Abstract. The article discusses the implementation of the sustainability rating of business entities in Uzbekistan and some important reforms implemented in the tax system, the experience of foreign countries, indicators and methods for assessing the determination of the sustainability rating, as well as the effective use of its criteria. Causal factors were investigated and analyzed, scientific and practical conclusions and proposals were formulated.

Keywords: sustainability rating, subsidies, preferences, tax credits, tax revenues, tax administration.

Kirish.

Ma'lumki maxsus iqtisodiy yoki kichik sanoat zonalarida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o'zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilma va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta'minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hududlar hisoblanadi.

Hududlarda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun sanoat maydonlarini tashkil qilish va ularda tadbirkorlarning to'liq va uzluksiz faoliyat olib borishini ta'minlash, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish, investorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida MIZ faoliyati samaradorligini tahlil qilish masalalariga qayta-qayta to'xtalib, ular faoliyatidagi hamda iqtisodiyot rivojiga, investitsiyalarni jalb etish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan kamchiliklarni, shuningdek, MIZlar faoliyatining ijobiy natijalarini ham e'tirof etgan.

Shularni hisobga olganda, O'zbekistonda ham hozir faoliyat yuritayotgan MIZlar ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini soliq imtiyozlari orqali baholash va ular faoliyatini yaxshilashga investitsiyalar jalb etish va reytingini ko'tarish hozirgi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodchi olimlardan T.P.Danko va Z.M.Okrutlar (1998) maxsus iqtisodiy hududlarni "...qulay investitsiya muhitini yaratish hamda ishlab chiqarishni, savdo-sotiqni, ilmiy faoliyatni rag'batlantirish mexanizmi" sifatida baholagan.

Rossiyalik iqtisodchi olim V.D.Adrianov (1997): "Maxsus iqtisodiy hududlar milliy hududning bir qismi bo'lib, iqtisodiy muammolar yechimini topishda, investitsion faollikni oshirishda keng imkoniyatlarni yaratib beradi", deya o'z fikrini bildirgan.

A.V.Vaxabov va boshq., (2010) fikricha, "erkin iqtisodiy hudud - bu mahalliy hamda xorijiy tadbirkorlar faoliyat yuritishi uchun maxsus imtiyozli iqtisodiyot amal qiladigan chegaralangan hudud".

S.S.Mirzaliyeva (2001) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, erkin iqtisodiy zona-mamlakat (yoki mamlakatlar) hududining muayyan ijtimoiy, iqtisodiy texnologik vazifalarni hal etish maqsadida barpo etiladigan, maxsus ma'muriy boshqaruvga va xo'jalik yurituvchi subyektlarning imtiyozli rejimiga ega bo'lgan qismidir.

Sh.I.Mustafaqulovning (2017) ta'kidlashicha, erkin iqtisodiy hudud - bu mamlakatning imidji ham. Erkin iqtisodiy hududlar, hatto, yomon faoliyat yuritgan taqdirda ham mamlakatni liberallashtirishga xizmat qiladi. Erkin iqtisodiy hudud qaysi mamlakatda, uning qaysi hududida yaratilmasin, u ijtimoiy loyihadir. Hududni yaratish nafaqat hudud uchun qo'shimcha daromad keltiradi, balki butun mamlakat uchun turli shaklda foydali qaytim beradi.

Sh.Nurmatovning (2024) fikricha erkin iqtisodiy zonalar soliq imtiyozlari tadbirkorlar uchun ayniqsa jozibador bo'lishi mumkin, ammo shuni unutmaslik kerakki, erkin iqtisodiy zonalarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga beriladigan soliq imtiyozlaridan maqsadli foydalanilishini va tadbirkorlik subyektlarining soliq majburiyatlarini bajarishini ta'minlash maqsadida soliq nazorati choralari ko'rilishi kerak.

Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonunga asosan maxsus iqtisodiy zona tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan hudud deb keltirilgan. (Qonun, 2022)

Soliq kodeksining 68-bobi aynan maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlanib, 473 va 477-moddalardan iborat. Soliq kodeksining 473-moddasiga muvofiq maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilariga kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, mol-mulk solig'idan, yer solig'idan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilangan muddatga ozod qilish tarzida soliq imtiyozlari beriladi. (Qonun, 2019)

Maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilari foyda solig'ini to'lashdan o'zi kiritgan investitsiyalar hajmiga qarab:

3 million AQSH dollaridan 5 million AQSH dollarigacha bo'lgan miqdordagi investitsiyalar uchun - 3 yil muddatga;

5 million AQSH dollaridan 15 million AQSH dollarigacha bo'lgan miqdordagi investitsiyalar uchun - 5 yil muddatga;

15 million AQSH dollari va undan yuqori miqdordagi investitsiyalar uchun - 10 yil muddatga ozod etiladi.

Demak maxsus iqtisodiy zona iktirokchilari foyda, mol-mulk, yer va suv resurlaridan foydalanganlik uchun soliqlar bo'yicha imtiyozlarga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 41-son Farmoni qabul qilindi. (Farmon, 2025)

Farmon bilan 2025-yilda maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilandi:

maxsus iqtisodiy zonalarda 2,3 milliard AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalarni o'zlashtirish, eksport hajmini 1 milliard AQSH dollariga yetkazish, ishlab chiqarish hajmini 4,3 milliard AQSH dollariga teng miqdorda ta'minlash va 12 mingta yangi doimiy ish o'rinlarini yaratish;

sanoat zonalarida 800 million AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalarni o'zlashtirish, eksport hajmini 512,2 million AQSH dollariga yetkazish, ishlab chiqarish hajmini 1,8 milliard AQSH dollariga teng miqdorda ta'minlash va 17 mingta yangi doimiy ish o'rinlarini yaratish.

Shuningdek mazkur Farmon bilan Namangan viloyatida "Namangan" maxsus eksport zonasi tashkil etilishi belgilanib, zona ishtirokchilari tomonidan chetdan olib kiriladigan xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirilishi nazarda tutildi. Bunda ushbu hududga joylashtirilgan tovarlar bojxona to'lovlarini to'lash va iqtisodiy siyosat choralarini qo'llash maqsadida bojxona hududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi.

E'tiborli jihati mazkur zona ishtirokchilariga respublika korxonalari tomonidan yetkazib berilgan xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar, ko'rsatilgan xizmatlar eksportga tenglashtiriladi. Bunda zona ishtirokchilari tomonidan ichki bozorga sotilgan tovarlar importga tenglashtirilib, tegishli bojxona va soliq to'lovlari undiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, maxsus iqtisodiy zonalarda joylashgan tadbirkorlik subyektlarining foydalanilgan soliq imtiyozlari va ular tomonidan amalga oshirilgan eksport ma'lumotlari bo'yicha tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarining jami foydalanilgan imtiyozlari, ularning tovar aylanmasi va to'lagan soliqlari, soliq yuki va eksport salohiyatini tahlil qilib chiqamiz. Bugungi kunda mamlakatimizda ro'yxatga olingan maxsus iqtisodiy zonalar 22 tani, ulardagi jami ishtirokchilar soni 1087 tani tashkil etmoqda. Ushbu 1087 ta ishtirokchi tadbirkorlik subyektlarining 107 tasi yoki 9,8 foizi xozirda faoliyat ko'rsatmayotgan subyektlar xisoblanadi.

1-jadval

Maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari foydalanilgan soliq imtiyozari to'g'risida
MA'LUMOT

№	EIZ nomi	Ishtirok- chilar soni	shundan		2023-yil		2024-yil	
			Faoliyati bor	Faoliyati yo'q	soni	summasi	soni	summasi
Jami		1 087	980	107	597	2 570 919	635	3 016 122
1	"Mashinasozlik va elektrotexnika" MSZ	17	17	0	7	828 050	7	933 220
2	"Angren" EIZ	130	127	3	91	335 063	100	371 527
3	"Andijon-farm" EIZ	13	11	2	8	41 309	8	13 437
4	"Bo'stonliq-farm" EIZ	10	10	0	3	30 625	5	8 089
5	"Buxoro-agro" EIZ	243	225	18	141	58 619	145	56 872
6	"G'ijduvon" EIZ	39	37	2	27	61 044	24	44 429
7	"Jizzax" EIZ	49	43	6	32	245 254	33	131 687
8	"Zomin-farm" EIZ	4	3	1	3	860	3	376
9	"Ipak yo'li" EIZ	7	7	0	0	0	0	0
10	"Qoraqo'l" EIZ	4	4	0	2	30 488	4	52 945
11	"Qo'qon" EIZ	182	132	50	73	186 823	75	248 590
12	"Navoiy" EIZ	87	82	5	57	177 104	58	342 970
13	"Namangan" EIZ	24	22	2	12	161 662	13	98 288
14	"Nukus" EIZ	24	20	4	14	16 220	18	9 179
15	"Parkent-farm" EIZ	9	9	0	7	11 057	7	9 253
16	"Sirdaryo" EIZ	28	28	0	20	88 472	24	141 767
17	"Sirdaryo-farm" EIZ	5	5	0	5	16 325	5	10 866
18	"Termiz" EIZ	24	21	3	8	8 435	10	10 186
19	"Urgut" EIZ	150	141	9	68	174 080	74	345 193
20	"Hazorasp" EIZ	21	21	0	9	13 620	12	20 423
21	"Chiroqchi" EIZ	10	9	1	3	19 702	3	43 272
22	Kosonsoy-farm EIZ	7	6	1	7	66 105	7	123 553

1-jadval ma'lumotlariga e'tibor bersak 2023-yilda 597 korxona 2 570,9 mlrd.so'mlik soliq imtiyozlaridan foydalangan bo'lsa, 2024-yil davomida 635 korxona tomonidan 2 262,1 mlrd.so'mlik soliq imtiyozlaridan foydalangan. Bu soliq imtiyozlaridan foydalanishni 1,0 foizga kamayganini ko'rsatadi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, eng ko'p soliq imtiyozlaridan foydalanilgan zonalar "Mashinasozlik va elektrotexnika" MSZ- 933,2 mlrd.so'm, "Angren" EIZ- 371,5 mlrd.so'm, "Navoiy" EIZ-342,9 mlrd.so'm, Urgut" EIZ-345,2 mlrd.so'm va "Qo'qon" EIZ - 248,6 mlrd.so'mni tashkil etadi.

Foydalanilgan soliq imtiyozlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan umumiy olganda ko'paygan bo'lsada, ayrim maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilarida foydalanilgan soliq imtiyozlari kamaygan.

Misol uchun, "Jizzax" EIZning 2023-yilda jami foydalanilgan soliq imtiyozlari 245,2 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib uning foydalangan imtiyozlari 131,6 mlrd.so'mni tashkil o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114 mlrd.so'mga kamayib ketgan. Xuddi shunday, "Namangan" EIZning 2023-yilda jami foydalanilgan soliq imtiyozlari 161,6 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib uning foydalangan imtiyozlari 98,3 mlrd.so'mni tashkil o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 63,3 mlrd.so'mga kamayib ketgan.

Maxsus iqtisodiy zonaning 107 ta ishtirokchisi faoliyat ko'rsatmayotgani, bu esa mavjud resurslardan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi. EIZlar faoliyatini oshirish uchun tadbirkorlik muhitini yaxshilash va investitsiyalarni jalb qilish choralari ko'rilishi kerak.

2-jadval ma'lumotlarini ko'radigan bo'lsak Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarining 2023 va 2024-yillardagi umumiy ko'rsatkichlarga ko'ra jami tovar aylanma 105 157,1 mlrd so'mdan 105 225,3 mlrd so'mga oshib, 0,06% (68,2 mlrd so'm)ga o'sgan, to'langan soliqlar 1 217,7 mlrd so'mga (144%) oshgan. O'rtacha soliq yuki 3,8% dan 5,0% ga ko'tarilgan.

Tovar aylanma "Mashinasozlik va elektrotexnika" MSZda 619,4 mlrd.so'mga (101 foiz), "Navoiy" EIZda 814,2 mlrd.so'mga (115 foiz), "Urgut" EIZda 926,5 mlrd.so'mga (118 foiz) "Sirdaryo" EIZda 377,4 mlrd.so'mga (121 foiz) xamda "Parkent-farm" EIZda 48 mlrd.so'mga (132 foiz) o'sgan bo'lsa, "Jizzax" EIZda 1 351,1 mlrd.so'mga (90 foiz), "Qo'qon" EIZda 544,8 mlrd.so'mga (88 foiz), "Nukus" EIZda 87,8 mlrd.so'mga (72 foiz) va "Andijon-farm" EIZda 205 mlrd.so'mga (33 foiz) kamayganini ko'rishimiz mumkin.

MIZ a'zo 1087 ta xo'jalik yurituvchi subyektning 163 tasi (15 foiz) 2024-yilda tovar aylanmasini amalga oshirmagan.

2023-yilda "Buxoro agro" MIZ 243 ta subyektdan 36 tasida (15 foiz), "Urgut" MIZ 150 tadan 21 tasida (14 foiz), "Angren" MIZ 130 tadan 15 tasi (12 foiz), "Qo'qon" MIZ 182 tadan 22 tasi (12 foiz), "Navoiy" MIZ 87 tadan 12 tasi (14 foiz) umuman tovar aylanmasini amalga oshirmagan.

Shuningdek, 2024-yilda 350 ta subyektda (32%) tovar aylanmalari 2023-yilga nisbatan 7,4 trln.so'mga kamaygan

O'tgan 2024-yilda 1087 ta MIZ ishtirokchilari tovar aylanmasi 105,8 trln.so'mni tashkil etib, 2023-yilga (105,5 trln.so'm) nisbatan 275 mlrd.so'mga o'sgan.

Jami tovar aylanmaning 2024-yilda qariyb 76 foizi bor-yo'g'i 3 ta maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari xissasiga to'g'ri kelmoqda. "Mashinasozlik va elektrotexnika" MIZ - 55,2 trln.so'm (52 foiz), "Jizzax" MIZ - 12,3 trln.so'm (12 foiz) va "Angren" MIZ - 13,1 trln.so'm (12 foiz) hisobiga to'g'ri keladi.

Tovar aylanmasi kamaygan zonalarda iqtisodiy faoliyat pasaygan. Bu investitsiyalar yoki ichki bozor talabining kamayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Soliq tushumlari "Ipak yo'li" EIZda 3,5 mlrd.so'mga (1829 foiz) "Hazorasp" EIZ 22,8 mlrd.so'mga (198 foiz) va "Parkent-farm" EIZ 6,5 mlrd.so'mga (203 foizga) o'sib, soliq tushumlari keskin oshgan hududlar bo'lib hisoblangan.

2-jadval

**Maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari soliq yuki to'g'risida tahliliy
MA'LUMOT**

№	EIZ nomi	Tovar aylanmasi				To'langan soliq summasi				Soliq yuki	
		2023-yil	2024-yil	%	Farqi	2023-yil	2024-yil	%	Farqi	2023-yil	2024-yil
Jami		105 157,1	105 225,3	100%	68,2	4 033,7	5 251,3	144%	1 217,7	3,8%	5,0%
1	"Mashinasozlik va elektrotexnika" MSZ	54 599,8	55 219,2	101%	619,4	2 361,2	3 397,1	144%	1 035,8	4,3%	6,2%
2	"Angren" EIZ	13 498,3	13 051,3	97%	-447,0	308,2	453,9	147%	145,7	2,3%	3,5%
3	"Andijon-farm" EIZ	305,7	100,8	33%	-205,0	1,0	1,0	103%	0,0	0,3%	1,0%
4	"Bo'stonliq-farm" EIZ	268,6	305,8	114%	37,2	20,7	41,1	199%	20,5	7,7%	13,5%
5	"Buxoro-agro" EIZ	393,6	305,2	78%	-88,4	5,0	9,3	186%	4,3	1,3%	3,0%
6	"G'ijduvon" EIZ	1 025,8	1 068,8	104%	43,0	53,7	60,8	113%	7,2	5,2%	5,7%
7	"Jizzax" EIZ	13 712,0	12 360,9	90%	-1 351,1	507,7	455,3	90%	-52,3	3,7%	3,7%
8	"Zomin-farm" EIZ	5,3	2,4	45%	-2,9	0,1	0,2	306%	0,2	1,4%	9,7%
9	"Ipak yo'li" EIZ	11,4	9,3	82%	-2,1	0,2	3,7	1829%	3,5	1,8%	40,1%
10	"Qoraqo'l" EIZ	0,0	5,4	100%	5,4	5,2	78,5	1520%	73,3	100,0%	100,0%
11	"Qo'qon" EIZ	4 457,9	3 913,1	88%	-544,8	199,6	173,8	87%	-25,8	4,5%	4,4%
12	"Navoiy" EIZ	5 348,2	6 162,4	115%	814,2	190,1	163,0	86%	-27,1	3,6%	2,6%
13	"Namangan" EIZ	1 651,6	1 367,0	83%	-284,6	64,2	80,6	126%	16,4	3,9%	5,9%
14	"Nukus" EIZ	312,2	224,4	72%	-87,8	14,0	12,0	86%	-2,0	4,5%	5,3%
15	"Parkent-farm" EIZ	152,4	200,5	132%	48,0	6,3	12,9	203%	6,5	4,2%	6,4%
16	"Sirdaryo" EIZ	1 776,7	2 154,1	121%	377,4	44,1	41,9	95%	-2,2	2,5%	1,9%
17	"Sirdaryo-farm" EIZ	337,9	396,2	117%	58,2	29,1	22,1	76%	-7,0	8,6%	5,6%
18	"Termiz" EIZ	99,1	142,4	144%	43,2	1,8	1,4	76%	-0,4	1,8%	1,0%
19	"Urgut" EIZ	5 254,5	6 181,1	118%	926,5	172,8	174,4	101%	1,6	3,3%	2,8%
20	"Hazorasp" EIZ	1 093,9	1 223,0	112%	129,1	23,3	46,0	198%	22,8	2,1%	3,8%
21	"Chiroqchi" EIZ	852,0	832,2	98%	-19,8	25,4	22,2	87%	-3,2	3,0%	2,7%
22	Kosonsoy-farm EIZ	414,9	621,8	150%	206,8	4,1	8,8	213%	4,7	1,0%	1,4%

Soliq tushumlari oshgan bo'lsa ham, tovar aylanmasi yuqori sur'atda o'smagan. Ayrim hududlarda soliq yuki ortib, investitsion muhitga ta'sir qilishi mumkin. Eng yuqori o'sish sanoat va farmatsevtika sohalarida kuzatilgan.

Bu tahlillar asosida, hukumatga soliq yukini muvozanatlashtirish, investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish va zaif hududlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha choralar ko'rish taklif etiladi.

Bu natijalardan kelib chiqib, MIZlarda iqtisodiy faoliyat barqarorligini saqlab qolgani, biroq soliq yukining ortgani ko'zga tashlanadi.

3-jadval ma'lumotlarida maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) bo'yicha 2023 va 2024-yillardagi eksport faoliyati tahlil qilingan.

Eksport 2023-yilda 1 166,5 mlrd so'm (13 706,2 mln dollar), 2024-yilda 1 152,7 mlrd so'mni (14 606,3 mln dollar) tashkil etgan. Eksportdagi ma'lum bir pasayish (1 166,5 mlrd so'mdan 1 152,7 mlrd so'mga) bo'lishiga qaramay, 2024-yilda dollardagi eksport hajmi ortishi kuzatilgan.

Quyida ayrim MIZ ishtirokchilarining ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz:

- "Mashinasozlik va elektrotexnika" MSZda eksport 2024-yilda 485,0 mln.dollar, 2023-yilda esa 544,8 mln.dollar bo'lib, kichik pasayishni ko'rsatadi.

- "Angren" EIZ 2023-yilda eksport 1 266,9 mln.dollar, 2024-yilda esa 1 188,6 mln.dollarga kamaygan, bu esa boshqa zonalarga nisbatan muvozanatli kamayish hisoblanadi.

- "Jizzax" EIZda eksportda pasayish kuzatilgan, 2023-yilda 665,0 mln.dollar, 2024-yilda 456,0 mln.dollar bo'lib, umumiy kamayish mavjud.

- "Qo'qon" EIZda eksport hajmi o'sib, 2023-yilda 1 111,4 mln.dollar, 2024-yilda 1 351,3 mln.dollarni tashkil etgan.

- "Navoiy" EIZda xam eksportning xajmi o'sib, 2023-yilda esa 50,5 mln dollarni, 2024-yilda 103,5 mln.dollarni tashkil etgan.

Qo'qon, Navoiy va Sirdaryo-farm EIZlarda eksport hajmi o'sishi kuzatilib, ijobiy tendensiyalarga ega bo'lgan bo'lsa, Mashinasozlik, Angren, Jizzax va boshqa bir necha zonalarda eksportda pasayish kuzatilgan, bu o'zaro raqobat va iqtisodiy shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi tahliliy jadval ma'lumotlaridan kelib chiqib quyidagi fikrlarni bildirish mumkin.

MIZ ishtirokchilari 2023-yilga nisbatan 2024-yilda 38 taga ortganligi, va ular tomonidan foydalanilgan soliq imtiyozlari xam 445,2 mlrd.so'mga ortganligini ko'rish mumkin. Biroq soliq imtiyozlaridan foydalanishning teskari tomoni, ya'ni mazkur MIZ ishtirokchilari bu imtiyozlar evaziga bizga qanday ijobiy natijalar keltirdi degan savol tug'ilishi tabiiy.

Tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, qator imtiyozlar berilishiga qaramay, 10 ta tadbirkorlik subyekting tovar aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayib ketganligi hamda jami ishtirokchilarning eksport xajmi xam 1 166,5 mln.dollardan 1 152,7 mlr.dollarga kamayib ketganligi salbiy holat hisoblanadi.

Qulay sharoitlar yaratish maqsadida ishlab chiqarish va eksport qilishni rag'batlantirish uchun maxsus iqtisodiy zonalarda soliq imtiyozlari va boshqa tartiblarni takomillashtirilishi, ba'zi zonalarda eksportning yo'qolishini bartaraf etish uchun ishlab chiqarish tarmoqlarini ko'paytirish, eksport hajmining pasayishiga yo'l qo'ymaslik uchun, maxsus iqtisodiy zonlardagi faoliyatni muntazam ravishda monitoring qilish va ularning ishlashini yaxshilashga qaratilgan takliflar ishlab chiqilishi lozim.

3-jadval

Maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari eksporti to'g'risidagi tahlil

№	EIZ nomi	Ishtirok chilar soni	shundan		2023-yil			2024-yil		
			Faoliyati bor	Faoliyati yoʻq	soni	mln.dollar	mlrd.soʻm	soni	mln.dollar	mlrd.soʻm
Jami		1 087	980	107	260	1 166,5	13 706,2	249	1 152,7	14 606,3
1	"Mashinasozlik va elektrotexnika" MSZ	17	17	0	3	544,8	6 409,3	3	485,0	6 153,3
2	"Angren" EIZ	130	127	3	52	108,0	1 266,9	55	93,9	1 188,6
3	"Andijon-farm" EIZ	13	11	2	2	0,3	3,3	2	0,8	10,2
4	"Boʻstonliq-farm" EIZ	10	10	0	1	1,0	12,0	1	0,4	5,2
5	"Buxoro-agro" EIZ	243	225	18	18	8,5	97,8	15	2,9	36,2
6	"Gʻijduvon" EIZ	39	37	2	11	26,3	308,6	7	18,6	234,9
7	"Jizzax" EIZ	49	43	6	16	56,8	665,0	18	36,1	456,0
8	"Zomin-farm" EIZ	4	3	1	1	0,0	0,3	0	0,0	0,0
9	"Ipak yoʻli" EIZ	7	7	0	0	0,0	0,0	0	0,0	0,0
10	"Qoraqoʻl" EIZ	4	4	0	0	0,0	0,0	0	0,0	0,0
11	"Qoʻqon" EIZ	182	132	50	39	94,0	1 111,4	37	106,8	1 351,3
12	"Navoiy" EIZ	87	82	5	27	50,5	598,9	25	103,5	1 311,9
13	"Namangan" EIZ	24	22	2	5	38,8	455,1	6	39,1	495,7
14	"Nukus" EIZ	24	20	4	8	1,6	18,0	5	1,4	17,5
15	"Parkent-farm" EIZ	9	9	0	2	0,1	1,6	2	0,1	1,0
16	"Sirdaryo" EIZ	28	28	0	15	102,2	1 188,3	17	56,1	710,7
17	"Sirdaryo-farm" EIZ	5	5	0	2	0,3	3,8	4	0,8	10,2
18	"Termiz" EIZ	24	21	3	2	1,7	19,9	1	2,4	30,7
19	"Urgut" EIZ	150	141	9	49	83,2	975,6	44	130,2	1 646,0
20	"Hazorasp" EIZ	21	21	0	4	6,1	71,6	4	7,3	92,9
21	"Chiroqchi" EIZ	10	9	1	1	13,9	163,8	1	22,1	280,1
22	Kosonsoy-farm EIZ	7	6	1	2	28,4	334,9	2	45,3	574,0

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi o'rganilgan muammolar va tahlillardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelindi:

MIZlar investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Ular ma'muriy va soliq imtiyozlarini, shuningdek, infrastrukturani yaxshilashni o'z ichiga olishi mumkin. Bu, o'z navbatida, yangi ishlab chiqarish, texnologiyalar va xizmatlar sektorlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Maxsus iqtisodiy zonalar, ko'pincha, mahalliy aholiga ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy sektordagi qiyinchiliklarni kamaytirish uchun faoliyat ko'rsatadi. Bu mahalliy iqtisodiy o'sishga, hamda aholining ijtimoiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

MIZlar orasida texnologik inovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar uchun platforma yaratish, yangi ishlab chiqarish tarmoqlari va sanoatlarning rivojlanishini ta'minlaydi. Ko'p hollarda, maxsus ekonomik zonalar chet el kompaniyalarining yuqori texnologiyalar bilan tadqiqotlar olib borish uchun maydon bo'lib xizmat qiladi.

MIZlar iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirsa-da, ularning ekologik va ijtimoiy ta'siri ham muhim. Maxsus zonalarda atrof-muhitga zarar keltirmaslik uchun ekologik standartlar va tartiblar joriy etilishi kerak.

Yuqoridagi tahlillar va xulosalardan kelib chiqib quyidagilar taklif etiladi.

1. Soliq siyosati va imtiyozlar yo'nalishida chetdan olib kelinadigan xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar uchun bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlarni bekor qilgan holda tovarlarni "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirish tartibini joriy etish;

maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi bo'lmagan **tadbirkorlik subyekti bilan aynan o'xshash va bir xil turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilganda** maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisiga nisbatan soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llamaslik;

maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi **ishlab chiqargan mahsulotini 50 foizdan ortig'ini eksport qilmagan hollarda** maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisiga nisbatan soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llamaslik;

Maxsus iqtisodiy zonalarda raqobatbardoshlikni oshirish uchun soliq imtiyozlari va boshqa foyda keltiruvchi siyosatlarni amalga oshirish kerak.

2. Infrastrukturani rivojlantirish yo'nalishida MIZlarning samaradorligi infratuzilmani yaxshilashga bog'liq. Yangi yo'llar, ko'priklar, elektr ta'minoti, suv ta'minoti, internet va kommunal xizmatlar qatorida yaxshi infratuzilma barpo etilishi kerak.

3. Texnologik parklar va innovatsion markazlar yaratishda maxsus iqtisodiy zonalarda innovatsion markazlar va texnologiya parki tashkil etilishi kerak. Bu, bir tomondan, yangi ishlab chiqarishni rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanish imkonini yaratadi.

4. Ekologik standartlar va barqaror rivojlanishda maxsus iqtisodiy zonalarda ekologik standartlarni kiritish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun yangi chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Energiya tejamkorligi, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik tozalikning kafolatlanishi, mamlakatning umumiy ekologik ta'sirini kamaytiradi.

5. Ma'lumot va tajriba almashishda esa Maxsus iqtisodiy zonalarda ishlab chiqarish va tadqiqotlar borasida tajriba almashish, o'zgarishlarni kuzatish va yangi amaliy yondoshuvlarni joriy qilish zarur. Bu, zamonaviy tendensiyalardan foydalanish va ko'p millionlik investitsiyalarni jalb qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Adrianov V.D. (1997) Специальные экономические зоны. Журнал «ЭКО», (№ 3), С: 42.

Bhatti M. A., Isayev F. (2023) Evaluating the Effectiveness of Mandatory IFRS Adoption in Enhancing Transparency and Governance in Saudi Arabia //Cuadernos de Economía. – T. 46. – №. 132. – С. 110-119.

- Danko T.L. (1998) Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве// ИИФРА-М. С:168.
- Farmon (2025) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-41-son Farmoni, 1 va 4-bo'limlar.
- Ikromovich, I.F. (2022). Analysis of resource taxes based on tax analysis technique. *International Journal of Management IT and Engineering*, 12(12), 65-71.
- Ikromovich, Isayev Fakhridin. (2017) "Analysis of the profit tax and its improvement." *International Journal of Research in Social Sciences* 7.12: 74-85.
- Ikromovich, Isayev Fakhridin. (2017) "Concept of economic analysis and its structural components." *International Journal of Marketing and Technology* 7.12: 1-13.
- Isaev F. I. (2022) Tax Accounting: Theory and Practice //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – T. 9. – №. 12. – С. 30-38.
- Isaev, F. (2017). Солиқ имтиёзларининг солиқ юки кўрсаткичига таъсири таҳлили. *Iqtisodiyot Va Innovatsion Texnologiyalar*, (6), 294–301. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/9579
- Isaev, F. (2021). Advantages of applying tax incentives in the conditions of economic crisis. *International Journal of Marketing and Technology*, 11(8), 15-25.
- Isaev, F.I. (2021). Tax Policy of the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Management IT and Engineering*, 11(8), 1-9.
- Kodeks (2019) O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-599-son Qonuni. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi 473 va 477-moddalar.
- Mirzaliyeva S.S. (2001) Maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning xorij tajribasi: I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya Avtoreferati. Toshkent. TDIU, 8-bet.
- Mustafaqulov Sh.I. (2017) Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya Toshkent. "Iqtisod-Moliya", -326-bet.
- Nurmatov Sh.R. (2024) "Soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish". Monografiya Toshkent: "Iqtisodiyot", 69-bet
- Qonun (2020) O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'RQ-604-son Qonuni. 3-moddasi.
- Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. (2010) Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. –T.: Moliya, 180-bet
- Исаев Ф. (2021) Камерал солиқ текширувларини ўтказишда солиқ таҳлилидан фойдаланишни такомиллаштириш //Экономика и образование. – №. 4. – С. 172-176.
- Исаев Ф. (2021) Совершенствование налогообложения имущества //Экономика и инновационные технологии. – №. 6. – С. 326-333.
- Исаев Ф. И. (2021) Солиқ текширувларини рақамлаштириш зарурияти. "Бизнес-эксперт" илмий журнали. Т. 6. – С. 52-54.
- Исаев Ф. И. (2021) Солиқларни таҳлика-таҳлил қилиш методикаси. " //Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий-электрон журнали.
- Исаев, Ф. (2021). Солиқ юкини аниқлаш методикасини такомиллаштириш. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (6), 86-91.
- Исаев, Ф. (2022). Йирик корхоналар мисолида солиқ йиғилувчанлиги кўрсаткичини таҳлил қилиш методикасини такомиллаштириш. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(1), 317–326. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/955>
- Исаев, Ф. (2022). Ресурс солиқлари таҳлилин ташкил этиш методикаси. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 23(5), 171–176. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/742>
- Исаев, Ф. (2022). Солиқ таҳлилин ўрганиш зарурияти. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от <http://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/720>

Исаев, Ф. (2023). Аудит самарадорлигининг назарий-амалий талқини. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 359-361.

Исаев, Ф. (2023). Молиявий ҳисобот сифатини оширишда солиққа тортиш, мустақил аудит ва ички назоратнинг ўрни. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1 (7), 305–310.

Исаев, Ф. (2023). Рақамлаштиришнинг солиққа тортиш базасини кенгайтиришга таъсири. *Raqamli Iqtisodiyot Va Axborot Texnologiyalari*, 3(1), 3–11. Retrieved from <https://dgeconomy.tsue.uz/index.php/dgeco/article/view/192>

Исаев, Ф. (2023). Солиқ таҳлили-иқтисодий таҳлилнинг таркибий қисми. *Nashrlar*.

Исаев, Ф. (2023). Солиқ ислоҳотлари ва уларнинг оқибатларини баҳолаш. *Nashrlar*, 1 (2), 59–62.

Исаев, Ф. (2023). Солиқ ислоҳотларининг таъсирини таҳлил қилиш. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1 (6), 155–161.

Исаев, Ф. (2023). Солиқ таҳлилининг фискал сиёсат самарадорлигига таъсир қилиш усуллари. *Nashrlar*, 1 (1), 128–131.

Исаев, Ф. (2023). Солиқ текширувлари: аудит самарадорлиги таҳлили. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 11 (1), 394–401. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a42

Исаев, Ф. (2023). Солиқ юкини камайтиришда солиқ таҳлилининг таъсирига оид назарий мулоҳазалар. *International Journal of Economics and Innovative Technologies*, 11(2), 415–421. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss2/i41

Исаев, Ф. (2023). Солиқларнинг фаровонликка таъсири назарияси. "Milliy Iqtisodiyotni Isloh Qilish Va Barqaror Rivojlantirish istiqbollari" Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi Materiallari to'plami., 206–208.

Исаев, Ф. (2024). Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ таҳлилининг методологик ёндашувлари. *Nashrlar*, 156.

Исаев, Ф. (2024). Рақамли молиявий активларни солиққа тортиш масалалари. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 2 (1), 352–360.

Исаев, Ф. (2024). Солиқ сиёсати ва иқтисодий тенгсизликнинг ўзаро боғлиқлиги. *Экономическое развитие и анализ*, 2(8), 272-280.

Исаев, Ф. (2025). Оценка налоговой политики в Узбекистане с использованием научного подхода. *Передовая экономика и педагогические технологии*, 1(3), 201–211. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/aept/article/view/65565>

Исаев, Ф., & Камилова, С. (2024). Электрон тижоратни солиққа тортишнинг назарий асослари. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2 (3), 296–304.

Курбанов З., Исаев Ф. (2022) Солиқ ҳисоби ва солиқ ҳисоботининг баъзи масалалари // *Экономика и образование*. – Т. 23. – №. 4. – С. 190-196.